

## QADIMGI XIToyNING MARKAZIY OSIYO BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI TARIXI

Ziyotov Xusan Ixtiyor o'g'li

[ziyatovhusan@gmail.com](mailto:ziyatovhusan@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada qadimgi Xitoyning xunlarga qarshi ittifoqchi topish maqsadida g'arbiy o'lkalarga sayohati sabab Buyuk ipak yo'lining boshlanishi, shuningdek, O'rta Osiyo hududi bilan ilk diplomatik aloqalarning boshlanishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xunlar, Chjan Szyan, U-Di, yuechjilar, Xan sulolasi, Dun Van va Gao Min, Qang' davlati.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, Xitoy xunlarga qarshi ko'p marta jangga kiradi. Xunlarning ashaddiy dushmanlari esa yuechjilar edi. Xolbuki, xitoyliklar xunlarga qarshi yuechjilar bilan ittifoqqa kirishlari muqarrar edi. Milodgacha 16 yili, ya'ni U-Di podsholigiga qadar 25 yil avval yuechjilar xunlarning zarbalariga bardosh bera olmasdan, Balxash ko'liga o'z suvini quyuvchi Ili daryosi hududlariga chekingandi. Eramizdan avvalgi 139-yil shaxanshoh U-Di yuechjilar o'zlarining umumiy dushmanlari bo'lgan xunlarga qarshi kurashish uchun harbiy ittifoq taklif qilib, maxsus elchilik xoziraydi. U-Di elchilariga Chjan Szyan boshchilik qilgan. Elchilik tarkibida jami 100 kishi bo'lib, ular Xunlarga yuzma-yuz kelib, ularga asir tushib qoladi. 10 yil asirlikda xayot kechirib, xunn malikasiga uylanadi, oila qurib, ularning ishonchiga sazovor bo'lgach, o'z maqsadi yo'lida g'arbga tomon sayohatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chjan Szyan Iliga yetib borganida, u yerda yuechjilarni topa olmadi. Ma'lumotlarga binoan, bu vaqt ichida dushmanlari tomonidan siqov va tazyiqqa uchragan yuechjilar g'arbga ancha ichkariga Amudaryo soxillaridagi Tasya (ya'ni, Yunon Baqtriya) hududlariga chekinganlar. Chjan Szyan uchun xunlardan keyin naqadar madaniyatli bo'lgan bu mamlakatni kashf etish, ispan konkistadorlari tomonidan inklar madaniyatining ochilishi bilan barobar kutilmagan tasodif edi. Yana bir tasodif Baqtriyada Xitoy savdo buyumlari va mahsulotlarining uchrashi bo'ldi. Shundan ma'lum bo'ldiki, boshqa mamlakatlar faqat xunlar ish g'ol qilgan hududlar emas, balki boshqa yo'llar orqali ham aloqalar o'rnatish mumkin ekan. Chjan Szyan zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifa hal etilmadi. Yuechjilar mehmonga katta hurmat-ehtirom bajo keltirdilar iltifot ko'rsatdilar, ammo, ular o'zlarining avvalgi yashash joylari sharqiy Mo'g'uliston



haqida og'iz ochmadilar. Ular endilikda Turkiston ishtiyoqi yashamoqda edilar. Xitoyliklarning xunnlariga qarshi ittifoqlariga rad javobini berdilar.

Chjan Szyan Farg'ona, Qo'qon, Toshkent va Sirdaryodan Amudaryogacha, Baqtriyada bo'ldi. Faqatgina xunnlar podsholigida boshlangan beqarorlik tufayli asirlikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. 13-yildan keyingina u o'z yurtiga qaytib bordi. Chjan Szyanning shahanshoh nomiga tayyorlab, taqdim etgan hisoboti matni bizgacha Sima Szyan asari orqali yetib kelgan. Hisobotda Farg'ona, Ili vohasi, Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlar, Qirg'iz dashtlari, So'g'diyona, Baqtriya, Parfiya va nihoyat «Tyao-Shi» Mesopatamiya haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan. Mil.avv. 130, 127, 124, 123, 121 yillarda kuchli to'qnashuvlar kuzatilgan. Endilikda, masalan, mill.avv. 127-yilgi urushda tashabbusni xitoyliklar o'z qo'llariga olganlar. Xitoyliklar bu safar xunnlar yeriga bostirib kirganlar. Bu Xitoy generallari tomonidan cho'lda harakat qilish taktikasining o'zlashtirilishida o'z ifodasini topdi. Bu taktika hozir ham yapon harbiy akademiyasida juda qadrlanadi. G'arbda buni bilishmagan. Mil.avv. 119 - yildagi hujum oqibatida xitoyliklar xunnlariga qaqshatqich zarba berdilar. Shundan keyingi xujumlar ahamiyatsiz va kuchsiz bo'ldi. Xunnlarning bir qismi xitoyliklarga qaramlikni tan olgan bo'lsalar, boshqa bir qismi Xitoy chegarachi qozoqliklariga aylandi. Bu knyazliklar tor-mor etilib, Xitoy uchun yo'llar ochildi. Ili vohasi bilan munosabatlar allaqachon o'rnatilgan edi. Bu knyazliklar Grek, Rim, Misr, Xitoy ta'siri o'zaro kesishgan chorraha ustida joylashgan bo'lib, o'zining ajoyib madaniyatiga: san'ati, me'morchiligi, adabiyoti, tasviriy san'ati, sug'orish tizimiga ega bo'lgan.

Xitoy Xan sulolasi bilan O'rta Osiyoning Qang' davlati orasidagi munosabatlar boshqacha kechdi. O'z tarkibida ma'lum bir vaqt Xorazm So'g'diyona va Chochni hamda, Transokeaniya (Amudaryo orti)ning boshqa mulklarini birlashtirgan Qang' diplomatik munosabatlarda Xitoyning ustunligini tan olmasdan, mustaqil siyosat yuritadi. «To'ng'ich Xan xonadoni tarixi» bo'yicha, Qang' xukmdori huzurida elchilarga (diktator-o'zurpator) ya'ni, xokimiyatni zo'rlik bilan ko'lga oldi, shu tufayli O'rta Osiyo - Xitoy diplomatik munosabatlarida uzilish sodir bo'ldi.

O'rta Osiyo mulklarining Xitoy bilan mustahkam diplomatik aloqalari Xitoy sarkardasi Ban Chaoning g'arbiy yurtlarga safaridan keyin kuchaygan. «Kichik Xan Xonadoni tarixi» buyicha, Ban Chao katta qo'shin bilan butun O'rta Osiyo orqali o'tib, G'arbiy dengiz, aftidan, Kaspiy yoki Orol dengizgacha borgan.



Bu g'arbiy safardan keyin Xitoy shahonshohi saroyiga O'rta Osiyodan katta soliq, xiroj, o'lpon bilan elchilar borishgan. Bu albatta, ayrim holatlar bo'lib, g'arbiy yurtlar bilan aloqalar jonlangan, ba'zan uzilgan.

Har qalay, Parfiya Xitoy bilan diplomatik munosabatlarni davom ettirib noyob qushlar, hayvonlarni o'z elchilari orqali jo'natib turgan. Shahanshoh Chjan-di (milodiy 87 yil) xukmronligi yillarida Xitoyga o'zi bilan birga sovg'a tarzida sher olib borgan elchi yo'llangan.

Shaxanshox Min-yuan (409-423 yy.) davrida g'arbiy yurtlardan umuman elchilarning kelmaganligi qayd etilgan. Bu munosabatlar Vey Tay-U (426-452 yy.) sulolasiga mansub shahanshoh davrida O'rta Osiyoga shahanshoh departamenti maslahatchilari Dun Van va Gao Minlar boshchiligida katta miqdordagi sovg'a-salom (kimxob, zarbof, kundal va shohi gazlamalar) bilan katta elchilik kelgan.

Dun Vanning O'rta Osiyoga missiyasi shimoliy yo'l bilan amalga oshirilgan. Elchilar avval usunlar huzurida bo'ldi. Yettisuvda joylashgan usunlar elchilarni katta izzat-ikrom bilan qarshi oldi. Usun xukmdori Dun Vanga Farg'ona va Choch alloqachondan buyon Xitoy bilan aloqa bog'lashni istashini bildirgan. Aslida, esa bu yo'llarni xunn va jujanlar bekitib qo'yishgandi.

Xitoyga Dun Vanga qo'shib, O'rta Osiyoning 16 davlatidan («Beyshi» buyicha) elchilar yuborilgan va o'zaro elchilik aloqalari muntazam xarakter kasb etgan. Xitoyliklarning O'rta Osiyoga yurishlari arablar tomonidan to'xtatilgach, Xitoyda Tan (628-907 yy.) sulolasi xukmronligi davrida VIII asrning ikkinchi yarmiga qadar, siyosiy, iqtisodiy madaniy, elchilik va diplomatik aloqalar ancha faollashdi.

Shu tariqa, O'rta Osiyoda diplomatiya o'zining uzoq va ko'p asrlik tarixiga ega. Buyuk ipak yo'li harakatga kirgan ilk davrlarda «diplomatik savdo-sotiq» ancha rivojlangan. Milodgacha 2-yili Xan hukumati - xunnlarga 84 ming (dona) bo'lak ipak matolar 74 ming szin (u 221 bo'lak) ipak paxta yuborgan. Oqibatda, O'rta Osiyo bozorlari Xitoy mollari bilan to'ldirgan. Xatto milodgacha II asrning oxirlaridayoq shimoliy yo'l usti mamlakatlari - Dovon va hakoazolarda ortiqcha Xitoy savdo buyumlari va mollari to'planib qolgan.

Sharqiy Xan (25-220 yillar) saltanati davrida «elchilar va kuzatuvchilar xar ikki yo'nalishda muntazam qatnab, savdogarlar deyarli xar kuni chegaralarga savdo uchun kelganlar. «Xou-Xonshu» to'plami ma'lumotlariga ko'ra, milodning I asridayoq xorijlik savdogarlar ipak yo'li orqali saltanat poytaxti Loyan shahriga kirib borganlar. 58-yili shahanshoh Guanu vafotidan keyin, g'arbiy yurtlar savdogarlari ibodatxonalar bunyod qilib, o'tganlarning arvoqlariga qurbonlik



qilganlar. G'arbiy yurtlardan keladigan savdogarlar soni keskin ortib borgan. Oqibatda, ilk Vey (milodiy III asr) davrida Dunxuan gubernatori Szyan Si Loyanga yo'l olgan savdogarlarga maxsus ruxsatnoma bergan. Bu ruxsat tizimi keyingi Suy va Tan sulolari davrida ham hukm surgan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab, VI asrda savdosotiqning o'sib, rivojlanganligi haqida «Loyan ibodatxonalari haqidagi malumotlarda» aytilishicha, «Sunlin (Pomir)dan g'arbda Dasin (Vizantiya)ga qadar minglab shaharu mamlakatlardan xorijlik savdogarlar Xitoy poytaxtiga intiladilar. Ularni sanash qiyin. Bu yerda Osmon osti saltanatining barcha savdo mollari mavjud».

Xulosa shundan iboratki, agarda biz U-Di davrini undan so'nggi ancha kechki Van davriga taqqoslab ko'rsak, baribir U-Di xukmronligi davridagi buyuk tarixiy voqyealar sharaflanadi. Bu albatta, sharq va g'arbni o'zaro tutashtirgan buyuk ipak yo'lining harakatga (kuchga) kirishi bo'ldi. Buyuk ipak yo'li g'arbiy o'lkalarning kashf etilishi, Chjan Szyanning kashfiyoti oqibatlarini natijasidir. Shuningdek, Chjan Szyan Xitoyni beda, uzum, yong'oq, bodring, anor kabi mevali daraxtlar va o'simliklar bilan tanishtirdi.

### Adabiyotlar

1. Berdimurodov A. Indiaminova Sh. Buyuk ipak yo'li. Toshkent. 2017
2. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. Тошкент. 2007
3. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. Т., 2008
4. Иерусалимская А.А. О северокавказском «Шелковом пути» в раннем средневековье. «Советская археология», 1967. №2.
5. На среднеазиатских трассах Великого шелкового пути. Сборник статей. Ташкент, 1990.

